

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIGA
KIRUVCHILAR UCHUN**

SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____
F.I.O. _____ Imzo _____

ABITURIYENT DIQQATIGA!

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan boyicha 36 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Savollar kitobida abituriyentning familiyasi, ismi, otasining ismi xato to'ldirilgan yoki to'ldirilmagan va imzosi qo'yilmagan hollarda e'tirozlar ko'rib chiqilmaydi.

Kitob tipi: 32

FANLAR:

Blok 1: Ona tili va adabiyot

Blok 2: Biologiya

Blok 3: Kimyo

Savollar kitobi raqami: 1701332

Toshkent – 2017

ONA TILI VA ADABIYOT

- 1.** Yasama so'z vazifadosh ko'makchi bo'lib kelgan gapni aniqlang.
 A) Bobur xastaligi ustiga ko'p ishlab o'zini tolqitirib qo'ygandi.
 B) Bobur Agradan Kobulga yuborgan bu maktub Mohimga atalgani sezilib turardi.
 C) Bobur tufayli mana shu qorong'ulikni boyniga olib kelmoqda edi.
 D) Bobur o'z hayoti haqida bu qadar ochiqchasiga yozgani Xondamirni hayron goldirdi.
- 2.** Berilgan gapda hokim bo'lak vazifasida kelgan sifat(lar) nechta?
 Yigit oddiy kiyungan, o'rtabo'y va chiroyli ekan.
 A) 3ta B) 4ta C) 2ta D) 1ta
- 3.** Dimariq hali hech him va hech nima loyqalatib ulgurmagani uchun tip-tiniq, mayin oqmoqda.
 Ushbu gapda mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlarning nechtasi ismlar guruhiga mansub emas?
 A) 2 tasi B) 3 tasi C) 4 tasi D) 5 tasi
- 4.** Qaysi gapda uch xil gap bo'lagi fonetik o'zgarish asosida yozilgan?
 A) Tergovchilar bu qoidabuzarlik ayblanuvchining o'rnatilgan tartibni yaxshi anglamagani sababli yuzaga kelganini hisobga oldilar.
 B) Beshasqat shamol sovuqdan qaltirayotgan daraxtning so'nggi yaprog'ini ham uchirib ketdi.
 C) Atmosfera yo'qligi sababli Oy yuzasi yo haddan ziyod issiq, yo niyoyatda sovuq bo'ladi.
 D) Tovushlarning shirin-achchig'i, Bordir hatto yumshoq-qattig'i.
- 5.** Nutqimizda sirg'aluvchi jarangsiz til undoshlari soni nechta?
 A) 3 ta B) 6 ta C) 4 ta D) 5 ta
- 6.** Sabab holi sifatdosh bilan ifodalangan egasi ma'lum gapni toping.
 A) Tuman quyuqligidan yo'l zo'rg'a ko'rinar edi.
 B) Shamol tinavermagach, tog'ga chiqishni goldirdi.
 C) Boshqa hech narsani yo'qligi uchun bitta-yu bitta ho'kizini berib yuboribди.
 D) Uyalganidan bir zumda qizarib-bo'zarib ketdi va qadamini tezlatdi.
- 7.** Alam qildigan joyi shundaki, mening qavmlarim - tarjimonlar hamtilni bulg'ash uchun tobora xuruj qilmoqdalar.
 Ushbu gap haqidagi note:g'ri fikrlarni toping.
 1) kesim ergash gapli qo'shma gap; 2) ajratilgan to'ldiruvchi ishtirok etgan ergashgan qo'shma gap; 3) ergash gap tarkibida ajratilgan bo'lak; 4) bosh gapi kesimi ot kesim bo'lgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap.
 A) 1, 2 B) 1, 2, 3 C) 2, 4 D) 1, 3, 4
- 8.** Berilgan so'zlardan qaysilarining turlangan shakllari ham o'zaro omonim bo'la oladi?
 1) soch, 2) shox, 3) sir, 4) tovon, 5) es 6) bot
 A) 4, 5, 6 B) 2, 3, 4 C) 1, 3, 4, 5 D) 1, 2, 3, 6
- 9.** Qaysi javobdag'i juftlik o'zaro bir umumiyl ma'noni ifodalay oladi?
 A) tanti-mard B) adl-tik C) ahl-totuv D) qisim-siqim
- 10.** Ko'chma ma'noli so'z berilgan qatomni toping.
 A) Bo'yi va eni bir yarim metr keladigan g'or og'zi ochildi.
 B) Sal o'tmay osmonga sutrang nur purkab chaqin chaqdi.
 C) Nurmat tog'a ozoda odam bo'lgani uchun avyonni guldek tutadi.
 D) Yangi tug'gan sigirning sutidan og'iz tayyorlanadi.
- 11.** Dardim jim ichimga yutaymi endi,
 Kechagi yoshligim ertakmi endi?
 So'rsang sevinchimdan o'kinchim ko'proq,
 Kechagi yoshligim ertakmi endi?...
 She'riy parchadagi yasama so'zlar qaysi turkumlarga mansub?
 A) sifat, ravish B) sifat, fe'l, ravish C) ot, ravish, fe'l D) ot, sifat
- 12.** Quyida berilgan qaysi gapda yordamchi so'z turkumlarining har bir turiga oid birliklar qatnashgan?
 A) U niyoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o'ta qiziqvchan, uquvli, bilimga chanqoq, mehnatkash edi va shu fazilatlari bilan ajralib turardi.
 B) Bu zanjir ila zamonga daxldorsan, sen ham ahli olam qatori uchinchi ming yillikda yashamoqdasan.
 C) Bu maqsad sari qo'yilgan birinchi qadamgina emas, balki kelajakka ishonch belgisidir.
 D) Siz ham bu ishga qadam qo'yishdan ilgari bir karra o'ylab ko'rsangiz
- 13.** Sen Mashrabsan,
 Xalqqa tumor,
 Balxda dorga osilgan.
 Navoiysan, shoh yonida Faqirni duo qilgan.
 Yassaviyasan, meniki deb Ko'ringan da'vo qilgan,
 Ming bir ochilmagan Qo'rig'imsan, Vatanim.
 Berilgan she'riy parchada ishtirok etgan fe'llar necha xil nisbatdaligini aniqlang.
 A) 3 B) 4 C) 2 D) 5
- 14.** Yordamchi so'z turkumlarining faqat bir turiga, oid birliklar uch o'rinda qo'llangan gapni toping.
 A) Ko'z oldimda sobit turar faqat shu Vatan, Kulbasi ham kenglik qadar chulg'aydi meni.
 B) Faqat o'tmish bilan yashamas inson, Garchand bo'lolmaydi undan hech ozod.
 C) Dildan o'chiraylik g'amning otini, Bahor ham baxt kabi axir yagona.
 D) Mana shu o'yin-kulgular, qo'shiq va kuylar yosh-u qarining diliqa orom hamda quvонch bag'ishlagan lola sayli yaqinda bo'lgan edi.
- 15.** Qaysi javobda to'rtta sodda gap ishtirok etgan?
 A) Osti ham bir, ushti ham bir tuproqning, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.
 B) Qilichbozlar, otliqlarning yurti bu, Moziyga boq, kimsan, aytar bu ko'zgu.
 C) Bahor keldi, endi ortiq qish emas, Yur, o'g'lonim, elni ko'tarish uchun.
 D) Hamon suqli ko'zlar ila boqar yov, Oz yeringni o'zing asra bo'lib dov.
- 16.** Berilgan so'zlardan qaysilarida nuqtalar o'rnda chuqur til orqa sirg'aluvchi undosh yoziladi?
 1) ishta...a, 2) ji...oz, 3) e...tiyotkor, 4) ...oqon, 5) ...orij.
 A) 1, 2, 5 B) 2, 4 C) 2, 3, 4 D) 4, 5
- 17.** O'g'il ham qiz ham albatta uyda ko'chada o'z fe'li muomalasi bilan boshqalarga o'rnak bo'lishi kerak.
 Ushbu gapda tushurib qoldirilgan tinish belgilari haqida to'g'ri fikrni aniqlang.
 A) 5 o'rinda vergul, 1 o'rinda tire tushurib qoldirilgan
 B) 4 o'rinda vergul, 1 o'rinda tire tushurib qoldirilgan
 C) 6 o'rinda vergul tushurib qoldirilgan
 D) 4 o'rinda vergul tushurib qoldirilgan
- 18.** Meni yam-yashil o'tloqlarda dumalagan, chang ko'chalarda o'ynatgan damlarni unutolmay qiynalaman.
 Ushbu gapda bitishuv munosabatlari so'z birikmalari necha o'rinda qatnashgan?
 A) 3 B) 5 C) 6 D) 4
- 19.** Bermoq uchun dunyoga sayqlal
 Olam aro odam yaralgan.
 Ushbu she'riy parchadagi so'z birikmalari necha xil yo'l bilan xosil qilingan?
 A) 2 B) 1 C) 3 D) 4
- 20.** Eliboylar bundan ko'chib boradi,
 Qoldi endi o'ynab o'sgan elim deb.
 Ayrilik o'tiga bag'rini dog'lab,
 Borayotir qalmoq elni so'roqlab...
 Keltirilgan parchada tobe qismi fonetik o'zgarish asosida yozilgan yasama so'z bilan ifodalangan so'z birikmalaring turini aniqlang.
 A) boshqaruvi, moslashuvli, bitishuvli so'z birikmasi
 B) moslashuvli, boshqaruvi so'z birikmasi
 C) boshqaruvi, bitishuvli so'z birikmasi
 D) moslashuvli, bitishuvli so'z birikmasi
- 21.** Qaysi gapda nomustaql o'rin holi qatnashgan?
 A) Bizning ozod Vatanda qish ham qiladi xanda.
 B) Bizning litseyda o'tkazilgan tadbirni televizor orgali ko'rsatishdi.
 C) Bizning ko'chada yaxshi odamlar yashashadi.
 D) Sizning mahallangiz qaysi ko'chada joylashgan?
- 22.** Berilgan she'riy parchadagi sodda yasama so'zlardan nechtasining asosi shakldoshlik xususiyatiga ega?

- Bir kun ko'zlarimdan qochdi uyqular,
Bir kun yuragini ochdi tuyg'ular...
Men seni esladim entikib, yonib....
A) 3 B) 2 C) 1 D) 4
23. Berilgan she'riy parchada nechta yasama so'z qo'llangan?
Qon yig'latdi qaysi bag'ritosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?
Oyog'inga qo'yib yotay bosh,
Jayron, nega ko'zing to'la yosh?
A) 5 ta B) 4 ta C) 2 ta D) 3 ta
24. Qaysi gap tarkibida ismlarning munosabat shakli bilan shakldosh bo'la oladigan fe'l yasovchi qo'shimcha ishtirok etgan?
A) *Yomonga yo'liqsang, "yoy keldi" qilar.*
B) *Daraxini yer ko'kartiradi, odamni - el.*
C) *Bir tishlam non gadosi bo'lib, birovning eshigiga borgan vaqtlarim ham bo'ldi.*
D) *Kapalakning izidan quvib yurgan bolakylar tinchlanib, uy-uylariga kirib ketishi..*
25. Qaysi ijodkor she'rlaridan birida o'zini "kuyib o'tangan elning xoki, nazm elining choloki, xonning boshining pokidurman" deya ta'rif beradi?
A) *Avaz O'tar* B) *Turdi* C) *Zavqiy* D) *Muqumiy*
26. Abayning qaysi asari doston janriga mansub emas?
A) *"Iskandar"*
B) *"Azim rivoyati"*
C) *"Boy bolasi bilan kambag'al bolasi"*
D) *"Ma'sud"*
27. Qo'lingdan kelguncha karam qil, karam,
Karamli bo'lmagay hech kimsadan kam.
Ushbu pand-nasihat Sa'diy ijodiga mansub qaysi hikoyada uchraydi?
A) *Sahroda tashna itga duch kelgan kishi haqidagi hikoyat*
B) *Bo'zdan libos kiyib yuruvchi podsho haqidagi hikoyat*
C) *Hayit kuni adashib qolgan bola haqidagi hikoyat*
D) *O'g'lining qilmishi uchun zindonga tushgan darvesh haqidagi hikoyat*
28. Qaysi shoir odamlarning zlzila paytidagi ruhiy holatini
"Asablar tuproqqa cho'kkан edi tiz" tarzida bergen?
A) *Maqsud m Shayxzoda* B) *Erkin Vohidov* C) *Abdulla Oripov* D)
Shuhrat
29. "...Bog'ni kesishdi.
Dilim o'tanganin
Aytsin ho'l bolish,
Bog'ni kesishdi – yu,
Bag'im ezishdi".
Qaysi shoir o'z she'rda lirik qahramon sifatida bog'ni kesishganda yostiqni ho'llab yig'laganlarini yodga oladi?
A) *Usmon Nosir ("Bolalik")*
B) *Xayriddin Saloh("Yer va ter")*
C) *Sergey Yesenin ("Singlimga xat")*
D) *Mirtemir ("Qishlog'im")*
30. Asqad Muxtor ning bir xil janrga mansub bo'lmagan asarlari berilgan javobni aniqlang.
A) *"G'alaba ishonchi", "Tilak"*
B) *"Tug'ishganlar qayidi", "Mardlik cho'qqisi"*
C) *"Yulduzim", "Totli damlar"*
D) *"Jangchining bayram kechasi" "Tone edi"*
31. Quyidagi qaysi misra bilan boshlanuvchi she'r muxammas janrida bitilmagan?
A) *"Kishi holimni bilmas, mehribonimdan adashganman" (Furqat)*
B) *"Yod mandin kim berur: yaxshi zamonalr ko'rdiman" (Turdi Farog'i)*
C) *"Ohkim behad menga javr – u jafo aylar falak" (Nodira)*
D) *"Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir bo'lg'usi" (Munis)*
32. "Dunyoda kim yomonlik ko'rmagan deysiz? Umidsizlik – bu g'ayratsizlikdir. Dunyoda hech muqim narsa yo'q, shuningdek, yomonlik ham mudom bo'lmaydi. Axir , qori qalin qahraton qish ketidan ko'k maysali, tiniq suvli yoz kelmasmu?"
Ushbu ibratlari fikrlar keltilirgan asar nomi va muallifini toping.
A) *"Hiybat ul – haqoyiq", Ahmad Yuknakiy*
- B) "Devonu lug'ot it –turk", Mahmud Koshg'ariy
C) "Nasihatlar", Abay
D) "Qutadg'u biling", Yusuf Xos Hojib
33. "Turk xoqonligi" (N. R.ahmonov) risolasida bayon etilishicha, Tabg'ach imperatori saroyida garov sifatida ushlab turilgan turk zodagonlarining o'g'llaridan biri kim edi?
A) *Kultegin* B) *Eltarish* C) *To'nyuquq* D) *Istamin*
34. Cho'lpox "Kecha va kunduz" romanida qanday gapni '... haligi ikki boy bilan Abdusamat kaptarlarni qanotiga ilib, shamolning qo'lting'igam qistirib, yomg'irlarning tomchisiga joylab, bulutning qo'yniga solib uchiradi, har bir uchgan qarg'a shuni aytib qog'illeydi...', deb ta'riflaydi?
A) *"Akbarali mingboshi yana uylanibdi"*
B) *"Akbarali mingboshining ustidan ariza tushibdi"*
C) *"Akbarali mingboshining xotini Sibirga surgung qilinibdi"*
D) *"Akbarali mingboshi amalidan bekor bo'libdi"*
35. Shahrisabz ahli zodasidan men, Sa'dning xonavosidin men. Alisher Navoiyning "Sab'ai sayyor" dostonidagi ushbu parcha qaysi kun hikoyasidan olingan?
A) *payshanba* B) *chorshanba* C) *dushanba* D) *shanba*
36. Turkiy va forsiy adabiyotda shohlar haqidagi asarlar, davrlar mobaynida shakkllangan an'anaga ko'ra, asosan, aruzning qaysi vaznida bitilgan?
A) *mutaqoribi musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida*
B) *mutadoriki musammani mahzuf (yoki maqsur) vaznida*
C) *mutaqoribi musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida*
D) *hazaji musaddasi mahzuf (yoki maqsur) vaznida*
- ### BIOLOGIYA
37. Bug'doyning qizil ($A_1A_1A_2A_2$) va oq ($a_1a_1a_2a_2$) donli navlari o'zaro chatishtirilganda F_2 da hosil bo'ladigan och qizil (a), qizil (b), pushti (c) donli o'simliklar necha xil genotipik sinflarga ega bo'ladi?
A) a-1, b-2, c-2 B) a-2, b-3, c-2 C) a-2, b-1, c-3 D) a-2, b-1, c-4
38. Tishlarning qoramit rangi ikkita dominant gen ta'sirida rivojlanadi. Bu genlarning biri autosomada, ikkinchidi X xromosomada joylashgan. Bu belgining autosomada joylashgan turiga ega bo'lgan erkak va jinsga birikkan turiga ega bo'lgan ayol oиласида tishlari normal bo'lgan qiz va o'g'il tug'ildi. Ushbu oilada tug'ilgan farzandlari orasidan tishlari normal o'g'il bolalarining tug'ilish ehtimolini (%) toping?
A) 12,5 B) 50 C) 25 D) 75
39. Retinoblastoma ko'zning onkologik kasalligi bo'lib, erkaklar va ayollarda bir xilda uchraydi. Kasal ota-onalardan kasal farzandlarning tug'ilish ehtimolligi 75% yoki 100% bo'ladi. Otasi gomozigota kasal, onasi sog' bo'lgan qiz sog'lom yigitga tur mushga chiqsa, farzandlarning 50% i kasal tug'ildi.Ushbu kasallikning irstiyonish qanday genga bog'liq?
A) *autosomaga birikkan dominant genga*
B) *autosomaga retsessiv genga*
C) *X-xromosomaga birikkan dominant genga*
D) *X-xromosomaga birikkan retsessiv genga*
40. Glitsin (a) va guanin (b) ga mos keluvchi belgilarni toping.
1) halqali aminokislota; 2) purin asosi; 3) pirimidin asosi; 4) asiklik aminokislota; 5) translyatsiyada ishtirok etadi; 6) DNKda sitozin bilan 3 ta vodoror bog'lari orqali birikadi; 7) oqsilda peptid bog'i hosil qilib birikadi
A) a-3,6; b-1,5,7
B) a-1,3,7; b-2,6
C) a-4,5,7; b-2,5,6
D) a-1,5; b-3,6,7
41. Noma'lum miqdordagi glyukoza to'liq parchalandi.Ushbu jarayonda 4480 kJ issiqlik energiyasi va 154 molekula suv ajralib chiqdi. Dissimilyatsiya jarayonida to'liq parchalangan glyukoza miqdorini (g) aniqlang. hosil qilish uchun necha molekula ATF sarf bo'lishini aniqlang.(ADF va fosfat kislötaning birikishidan bir molekula ATF va bir molekula suv hosil bo'ladi)
A) 450 B) 630 C) 540 D) 360
42. Shimpanze zigotasining birinchi marta ekvatorial bo'linishidan hosil bo'lgan blastomerlardagi jami autosomal sonini aniqlang.
A) 384 B) 288 C) 368 D) 192
43. Albitsiya qaysi bo'limga (a), kakra qaysi sinfga (b) va kartoshka qaysi turkumga (c) mansub?

- A) *a-ikki urug 'pallalilar; b-lolasimonlar; c-baqlajon*
 B) *a- magnoliyatoifalar; b-lolasimonlar; c-baqlajon*
 C) *a-lolasimonlar; b-magnoliyatoifalar; c-ituzum*
 D) *a-gulli o'simliklar; b-ikki urug 'pallalilar; c-baqlajon*
44. Quyidagi berilganlardan noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlang.
 1) sil tayoqchasi hujayrasidagi halqasimon DNK membrana bilan o'ralmagan; 2) xongul hujayrasi membranasini oqsil va ikki qavat lipid molekulalaridan iborat; 3) loviya urug'i hujayrasidagi donador endoplazmatik to'r lipid sintezini amalga oshiradi; 4) ko'k yashil suv o'tlarining hujayralari erkin azotni to'plash xususiyatiga ega; 5) oq po'panak tanasi bir yadroli ko'p hujayralardan iborat; 6) batsidiya hujayralarda lisenin, amilaza, turli vitamin va fermentlar uchraydi.
 A) I,6 B) 2,4 C) 3,5 D) I,3
45. Quyidagi hayvonlarni ularning fandagi nomi bilan to'g'ri juftlab ko'rsatilgan javobni toping.
 1) o'txo'r kaltakesak; 2) toshbaqalar avlod; 3) baliq kaltakesak; 4) yirtqich kaltakesak; 5) uch shohli kaltakesak; 6) ilon kaltakesak;
 a) plakoxelis; b) tritsopetops; c) tiranozavr; d) mezozavr; e) brontozavr; f) ixtizozavr
 A) I-e; 2-a; 3-f; 4-c; 5-b; 6-d
 B) I-b; 2-a; 3-d; 4-e; 5-c; 6-f
 C) I-c; 2-e; 3-f; 4-a; 5-b; 6-d
 D) I-e; 2-d; 3-f; 4-b; 5-c; 6-a
46. Biosfera evolutsiyasining uchinchi bosqichida qanday jayaronlar sodir bo'lgan?
 1) dastlabki ko'p hujayrali organizmlar paydo bo'lishi; 2) biosfera gomeostaz holatining buzilishi; 3) qanotli hasharotlar rivojlanishi; 4) "parnik effekti" natijasida harorat ko'tarilishi; 5) qirg' oqqa yaqin joylashgan suvo'tlar tanasining tabaqalashuvni; 6) kislotali yomg'irlar yog'ishi oqibatida hosildorlikning keskin kamayib ketishi
 A) I,5,6 B) 2,3,4 C) 2,4,6 D) I,3,4
47. Abiotik omillar ta'siri to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
 A) *odamlarda kesson kasalligining yuzaga kelishi va o'simliklarning fitoaleksin ishlab chiqarishi*
 B) *hayvonlar murdasining chirishi va gledichiyning o'zidan fitonsid ajratib chiqarishi*
 C) *qiyaliklarda kserofitlarning o'sishi va zamburug'ning penitsill ishlab chiqarishi*
 D) *tog'larda yashovchi odamlar qonida eritrotsiilarning ko'p bo'lishi va yorug'lik yetishmasligi natijasida odamlarda D avitaminoz rivojlanishi*
48. Qaysi belgilarning irlsiyani polimer genlar faoliyatiga bog'liq emas?
 1) piyozbosh rangining oq bo'lishi; 2) qoramollarda sutning miqdori; 3) itlarda yungning oq bo'lishi; 4) tovuqlarda patning qora rangda bo'lishi; 5) xo'rozlarda gulsimon tojining irlsiyani; 6) lavlagida qandning miqdori; 7) xushbo'y no'xotda gultojbarglarning oq bo'lishi; 8) bug'doya donning qizil rangda bo'lishi
 A) 3,6 B) 2,4 C) I,8 D) 5,7
49. Vegetativ nerv sistemasini bo'limlari va ularning boshqaradigan jarayonlar o'rtasidagi muvofiqlikni aniqlang.
 a) orqa miya; b) uzunchoq miya;
 1) sistolani tezlashtiradi; 2) sistolani sekinlashtiradi;
 3) oshqozonda shira ajralishini tezlashtiradi; 4) qovoq muskullarini bo'shashtiradi; 5) oshqozon muskullarini harakatini susaytiradi
 A) a-1,3; b-2,4
 B) a-4,5; b-2,3
 C) a-1,4; b-2,5
 D) a-3,4; b-2,5
50. Sog'lom odam yuragining o'ng qorincha sistolasi (a) va chap bo'lmacha diastolasi (b) vaqtidagi yurak klapanlarining qanday holatda ekanligini aniqlang.
 A) *a-ikki tavaqali klapan ochiq; b- yarimoysimon klapan ochiq*
 B) *a-uch tavaqali klapan ochiq; b- yarimoysimon klapan yopiq*
 C) *a-ikki tavaqali klapan yopiq; b- yarimoysimon klapan yopiq*
 D) *a-uch tavaqali klapan yopiq; b- yarimoysimon klapan ochiq*
51. Odamdagi o'mrov osti muskulining bo'yinning teri osti muskulidan farqini toping.
 1) vegetativ nerv sistemasini orqali boshqariladi; 2) joylashuv ko'ra to'sh-o'mrov so'rg'ichsmon muskul bilan bir guruhga kiradi; 3) joylashuviga ko'ra diafragma muskuli bilan bir guruhga kiradi; 4) gavdaning ko'krak muskuli hisoblanadi; 5) suyakka birikadi; 6) boshning harakatini ta'minlaydi; 7) qo'lning harakatida ishtirok etadi
 A) I,4,5 B) I,5 C) 2,6 D) 3,4,7
52. Quyidagi belgilarni orasidan sog'lom odamning siyidik qopiga xos bo'lмаган belgilarni ajrating.
 1) murtak varaqasining endodermsidan rivojlanadi; 2) vegetativ nerv sistemasini orqali boshqariladi; 3) 1-2 bel umurtqalar ro'parasida joylashgan; 4) muskul hujayralarida bitta yadro va kalta miofibril tolachalari bo'ladi; 5) simpatisk nerv sistemasini ta'sirida muskullari bo'shashadi; 6) siyidik qopide devorida proprioreceptorlari joylashgan; 7) adashgan nerv ta'sirida siyidik qopide muskullari qisqarib siyidik ajraladi
 A) I,2,3 B) I,5,7 C) 3,6,7 D) 3,4,5
53. Sezgi analizatorlari haqidagi noto'g'ri fikrni aniqlang.
 A) *Terining derma qavatida issiqni va bosimni sezuvchi retseptorlar sypalashni va og'riqni sezuvchi retseptorlarga nisbatan chuqurroq joylashgan.*
 B) *Gipermetropiya keksalarda ko'z gavhari do'ngligining kamayib ketishi tufayli yuzaga keladi.*
 C) *Quloqning suyak labirinti bilan parda labirinti orasida endolimfa, parda labirinti ichida perilimfa suyuqligi bo'ladi.*
 D) *Harakat analizatorning oly nerv markazi bosh miya katta yarimsharlari po'stilog'ining oldindi markaziy egatida joylashgan.*
54. Qoramol tasmasimon chuvalchangida nerv sistemasining sodda tuzilganligi, to'rtta so'rg'ichining bo'lishi hosil qilish organlarining yo'qolib ketganligi qanday evolutsiyoning jarayonlarni aks ettiradi?
 A) *biologik progress, umumiyyat degeneratsiya*
 B) *umumiyyat degeneratsiya, biologik regress*
 C) *idioadaptatsiya, biologik regress*
 D) *biologik progress, aromorfoz*
55. Og'iz a'zosi kemiruvchi tipda tuzilgan chala o'zgarish bilan rivojlanadigan hasharotlarni aniqlang.
 A) *Sariq suvarak, moviy ninachi, to'shak qandalasi*
 B) *yashil temirchak, Osiyo chigirkasi, Turkiston termiti, halqali ninachi*
 C) *Osiyo chigirkasi, suluv ninachi, kolorado qo'ng'izi, beshiktervatar*
 D) *moviy ninachi, yashil temirchak, Turkiston termiti, burga*
56. Alligator bilan bir sinfda (a) va begemot bilan bir turkumga (b) birlashtirilgan hayvonlar to'g'ri keltirilgan javobni aniqlang.
 A) *a-gekkon, kobra, gavial; b-arxar, g'izol, zubr*
 B) *a-And kondori, kobra, ilonbo'yin toshbaqa; b-arxar, bizon*
 C) *a-aureliya, kabarga, yelik; b-to'ng'iz, gibbon, oqcha*
 D) *a-kaputsin, kapcha, gatteriya guattara, b-muflon, g'izol, bizon*
57. Leyshmaniya va sil batsillasi uchun umumiyyat bo'lgan xususiyatlarni aniqlang.
 A) *Eukariot organizm, irlsiy axboroti sitoplazmadagi halqasimon DNKda joylashgan.*
 B) *Bir hujayrali organizm, hujayra qobig'i xitindan iborat.*
 C) *Yadroси ikki qavat membrana bilan o'ralgan, reduplikatsiya jarayoni sitoplazmada kechadi.*
 D) *Membranasi ikki qator lipid va oqsil molekulalaridan iborat, ribosomasi sitoplazmada translyatsiyada qatnashadi.*
58. Hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi noto'g'ri fikrni belgilang.
 A) *Erkin yashovchi qadimgi yassi chuvalchanglardan ko'p tuklilar, ulardan esa kam tuklilar kelib chiqqan.*
 B) *Yassi kiprikli chuvalchanglarning parazit yashashga moslanishi tufayli so'rg'ichilar va tasmasimon chuvalchanglar kelib chiqqan.*
 C) *Qadimgi koloniya bo'lib yashovchi bir hujayrali xivchinilillardan gidsrimonlar, korall poliplari va meduzalar kelib chiqqan.*
 D) *Qadimgi yassi chuvalchanglar tanasida tana bo'shlig'i va orqa chiqaruv teshigi payda bo'lishi bilan to'garak chuvalchanglar kelib chiqqan.*
59. Quyidagi organizmlar orasidan tashqaridan kimyoviy energiya qabul qiladigan organizmlarni aniqlang.
 1) bezgak paraziti; 2) ossillatoriya; 3) yo'ng'ichqa; 4) xlamidomonada; 5) amyoza; 6) pseudomonas; 7) ichak tayoqchasi
 A) 3,5,7 B) 3,4,5 C) I,5,6 D) 2,4,6
60. Nukleoproteinlari yadro va sitoplazmada (a), faqat sitoplazmada (b) joylashgan organizmlarni juftlab ko'rsating.
 1) herpes; 2) exinokakk; 3) batsilla; 4) achitqi; 5) ossillatoriya; 6) xlorella; 7) xrokakk; 8) batsidiya; 9) bakteriofag; 10) OITV
 A) a-1,9,7; b-4,6
 B) a-4,6,8; b-3,5

- C) *a*-3,7; *b*-2,6
D) *a*-3,10; *b*-4,6
61. Organogenet (I) va gametogenet (II) jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni aniqlang.
1) o'zak organlar majmui hosil bo'ladi; 2) yetilish davrida hujayralar meyoz usulida ko'payadi; 3) ekodermadan nevr nayi vujudga keladi; 4) spermatogenezing o'sish davrida hujayralar tez kattalashadi; 5) endodermadan ayirish organlari rivojlanadi; 6) qushlarning ovogenezida shakllanish davri bo'ladi
A) I-1,5; II-2,4
B) I-2,4; II-1,5
C) I-1,3; II-2,6
D) I-2,6; II-1,3
62. Genotipik (a) va fenotipik (b) o'zgaruvchanlik bilan bog'liq hodisalarini aniqlang.
1) krossingover natijasida genlar rekombinatsiyasi; 2) meyoz jarayonida xromosomalarning tasodifly tarqalishi; 3) belgining reaksiya normasi doirasida o'zgarishi; 4) genlarning tuzilishi saqlangan holda ularning namoyon bo'lishining o'zgarishi; 5) urug'lanish jarayonida gametalarning tasodifan qo'shilishi.
A) *a*-3; *b*-4,5 B) *a*-2,5; *b*-3 C) *a*-1,2; *b*-4,5 D) *a*-2,4; *b*-1,3
63. EcoRI restriktazi GAATTC nukleotidlardan ketma-ketligini tanib, GA nukleotidlari orasidagi bog'larni kesadi. Maxsus sharoitda 110,5 nm uzunlikdagi DNA molekulasi EcoRI restriktazi orqali A,B,C bo'laklarga bo'lindi. Hosil bo'lgan barcha DNA bo'laklaridagi jami vodorod bog'lar soni dastlabki DNA molekulusidagi vodorod bog'lar sonidan 2% ga kam. Agar nukleotidlardan orasida masofa 0,34 nm ekanligi ma'lum bo'lsa, DNA bo'laklari (A,B,C) tarkibidagi vodorod bog'larning nechtaisi G va C nukleotidlari orasida joylashgan?
A) 350 B) 450 C) 426 D) 334
64. Ildizdagi murtakdan yangi novda hosil qiladigan, barglari murakkab o'simliklar to'g'ri ko'rsatilgan javobni belgilang.
1) shirinmiy; 2) terak; 3) na'matak; 4) olma; 5) o'rik; 6) gilos; 7) yantoq
A) 4,6 B) 2,7 C) 3,5 D) 1,3
65. Bodiyon (a) va bo'tako'z (b) ning to'pguliga xos belgilarni aniqlang.
A) *a*-umumi gulpoysi qisqa, gullar bir tekislikda joylashgan; *b*-uzun gulpoysada gullar ketma-ket joylashgan
B) *a*-asosiy gulpoysi shoxlangan; *b*-atrofi o'rama bargchalar bilan o'rangan
C) *a*-asosiy gulpoysi shoxlanmagan; *b*-asosiy gulpoysi shoxlangan
D) *a*-atrofi o'rama bargchalar bilan o'rangan; *b*-gullar gulpoysaga uzun bandlar bilan birikadi
66. Karamdoshlar oilasi vakillarining ra'nodoshlar oilasi vakillaridan farqlarini toping.
1) gulpo'rg'oni murakkab, a'zoli; 2) barglari yonbargchali; 3) gullari to'g'ri, ikki jinsli; 4) shingil to'pgul hosil qiladi; 5) changchilar ikkita halqada joylashgan; 6) barglari doim oddiy; 7) barglari poyada ketma-ket joylashgan
A) 1,2 B) 3,4,7 C) 2,3,6 D) 5,6
67. Makkajo'xori haqida to'g'ri ko'rsatilgan ma'lumotni aniqlang.
A) *Poxol* poyasi bir metrda oshadigan, bo'g'imgilarga bo'lingan, tik o'suvchi ko'p yillik o'simlik.
B) Urug'dagi murtagi ildizcha, poyacha va ikkita bargchadan tashkil topgan.
C) *Gullari* mayda, rangsiz, ayrim jinsli, urug'chi gullar so'ta to'pgulida tashkil joylashgan.
D) Chatnaydigan mevasi quruq, etsiz, ko'p urug'li.
68. Spirogera (I) va ossillatoriya (II) uchun xos bo'lgan belgilarni toping.
1) hujayra markazi xujayra bo'linishida ishtirok etadi; 2) tarkibida xlorofil pigmenti mavjud; 3) erkin azotni o'zlashtiradi; 4) irlsiy material yadroda joylashgan; 5) donador endoplazmatik to'nda oqsillar sintezlanadi; 6) mitokondriyada kislordilli oksidlanish sodir bo'lad
A) I-3,6; II-4,5 B) I-1,4; II-5,6 C) I-3,5; II-2,4 D) I-3,6; II-2,4
69. Zuhrasoch o'simligida sporadan rivojlanuvchi bo'g'inda qanday qismlar hosil bo'ladi?
1) ildizpoya; 2) barg; 3) poya; 4) rizoid; 5) arxegoni; 6) anteridiy; 7) murtak; 8) sorus; 9) sporangiy; 10) gametalar
A) 5,6,7 B) 4,5,10 C) 1,2,3 D) 7,8,9
70. Devpechak, zarpechak barglarning yo'qolib ketganligi, ildiz o'mniga poyada so'rg'ichlar hosil bo'lib, uning yordamida "xo'jayin" o'simliklardan oziq moddalarni so'rib olishi qanday evolyutsion jarayonlarni aks ettiradi?
A) umumi degeneratsiya, biologik regress
B) biologik progress, aromorfoz
C) biologik progress, umumi degeneratsiya
D) idioadaptatsiya, biologik regress
71. Yer yuzidagi yagona quruqlik-Pangeya ikki bo'lakka ajralgan davrda...
A) yo'ldoshli sute nimizuvchilar paydo bo'lgan
B) kordaitlar paydo bo'lgan
C) dastlabki sute nimizuvchilar paydo bo'lgan
D) arxeopteriks paydo bo'lgan
72. Quyidagilardan ajoddar belgisining takrorlanishiga mos misollar to'g'ri ko'rsatilgan javobni toping.
1) bug'doyiq, marvaridgul, qirquloqlar ildizpoyasidagi qobiqlar; 2) otning ikkinchi va to'rtinchchi barmoqlar; 3) uch juft emchakli buzoqchaning tug'ilishi; 4) to'riq ottarda xira chiziqlarning paydo bo'lishi; 5) kitning dumg'aza va orqa oyoq suyaklari; 6) pashsha va chivinning ikkinchi juft qanotlari; 7) yuzi va badani yungli chaqaloqlar tug'ilishi; 8) dumli bola tug'ilishi
A) 2,3,4,6 B) 3,4,7,8 C) 1,2,5,6 D) 4,5,6,7

KIMYO

73. Qaysi karbon kislotaning 0,6 moli tarkibida 14,4 g uglerod atomlari bo'ladi?
A) moy kislota
B) propan kislota
C) chumoli kislota
D) sirka kislota
74. Qaysi birikmalarda kislorod +2 oksidlanish darajasini namoyon qiladi?
A) KO_2
B) OF_2
C) H_2O_2
D) H_2O
75. $H_2SO_4 \rightarrow S \rightarrow H_2S$ qatorda quyidagi qaysi xossa ortadi?
A) dissotsiyalanish darajasi
B) qaytaruvchilik
C) oksidlovchilik
D) suvda eruvchanligi
76. Bir xil aminokislota qoldig'idan tarkib topgan 52,8 g dipeptid yetarli miqdordagi xlorid kislota eritmasida gidrolizlanganda 89,2 g modda hosil bo'ladi. Aminokislotani aniqlang.
A) valin B) alanin C) glitsin D) leysin
77. 17,8 g α -aminokislotadan 9 g amin hosil bo'lgan bo'lsa, aminokislotani toping.
A) α -amino 2- metilpropan kislota
B) glitsin
C) β -aminopropion kislota
D) α -aminopropion kislota
78. 34,2 g 20% li saxaroza eritmasi kislotali muhitda gidrolizlanganda olingen aralashma kumush oksidining ammiakdagi eritmasi bilan ishlandi. Bunda 0,02 mol cho'kma tushdi. Saxaroza gidrolizi reaksiya unumini (%) toping.
A) 60 B) 50 C) 80 D) 75
79. Propanol, fenol va sirka kislotadan iborat aralashma Na metali bilan ishlanganda 4,48 litr (n.sh.) gaz ajraldi. Xuddi shunday miqdordagi aralashma $NaHCO_3$ eritmasi bilan ishlanganda olingen gaz 195,6 g NaOH eritmasidan o'tkazilganda faqat $NaHCO_3$ tutgan 4,2% li eritma hosil bo'ldi. Agar boshlang'ich aralashmada sirka kislotaning massasi propanol massasiga teng bo'lsa, propanol massasini (g) aniqlang.
A) 6 B) 24 C) 12 D) 3
80. sp^3 - gibrid orbitallarni soni sp^2 - gibrid orbitallarni sonidan $20 \cdot N_A$ ga ko'p bo'lgan glutar kislota olish uchun necha gramm siklik birikmani (yuqori harorat va kuchli oksidlovchilar ta'sirida) oksidlash zarur?
A) 180 B) 85 C) 170 D) 175
81. 12 g MeOH bilan 0,15 mol sulfat kislota yoki necha gramm ortofosfat kislotani to'la neytrallash mumkin?
A) 6 B) 9,8 C) 14,7 D) 4

82. 1,2,3,4-tetrametilsiklobutanni necha xil degalogeneni alkandan Zn metaliga etirib olish mumkin?
A) I B) 4 C) 2 D) 3
83. O'zaro izomer bo'lgan ikkita aromatik uglevodorod kaliy permanganatning kislotali eritmasi bilan oksidlanganda 1,4 mol CO_2 gazi, 0,2 mol benzoy kislota va 0,4 mol tereftal kislota hosil bo'ldi. Boshlang'ich uglevodorodlar massasini toping.
A) 20,1; 12
B) 33,5; 80,4
C) 46,9; 93,8
D) 26,8; 53,6
84. Dissotsiatsiyalanish darajasi 96% bo'lgan natriy nirtat tuzi eritmasida 2400 ta ion bor bo'lsa, nechta dissotsiatsiyalanmagan tuz molekulasi bor? (suvning dissotsiatsiyalanishi hisobga olinmasin)
A) 20 B) 50 C) 30 D) 60
85. HClO , HClO_2 , HClO_3 , HClO_4 tartibda kislotalarning oksidlovchilik xossasi qanday o'zgaradi?
A) ortadi
B) o'zgarmaydi
C) kamayadi
D) avval ortadi, so'ngra kamayadi
86. 67,73% li kumush nitratning 50,2 g eritmasi to'liq elektroliz qilinganda tarkibida $2,5\text{N}_A$ ta atom tutgan eritma hosil bo'ldi. Eritmadan necha faraday tok o'tganini hisoblang?
A) 0,6 B) 0,2 C) 1 D) 0,8
87. Ammiak sintez qilish jarayonida reaktordagi bosim 30% ga kamaydi. Boshlang'ich aralashmadagi azot bilan vodorod miqdori stekiometrik nisbatda bo'lsa, reaksiyadan keyin hosil bo'lgan gazlar aralashmasining hajmiy tarkibini aniqlang.
A) 1/9; 2/3; 2/9
B) 2/5; 2/5; 1/5
C) 1/7; 3/7; 3/7
D) 1/4; 1/4; 1/2
88. $^{238}\text{U} + 10\alpha \rightarrow \text{E} + \text{A} + p + 7n$
Ushbu yadro reaksiyasida E element izotopi massasi Uran izotopi massasidan 4/5 marta, A element izotopi massasidan esa 2,4 marta katta. E elementdagi elektronlar soni A element elektronlari sonidan 43 taga ko'p bo'lsa, E element izotopi yadro zaryadi ayirmasini aniqlang.
A) 115 B) 118 C) 122 D) 112
89. 0,06 mol $\text{CuSO}_4 \cdot 5\text{H}_2\text{O}$ va $\text{CuSO}_4 \cdot 3\text{H}_2\text{O}$ aralashmasining to'liq degidratlanishidan 0,2 mol suv hosil bo'ldi. Kristallogidratlarning mol nisbatini toping.
A) 2:4 B) 4:5 C) 3:1 D) 5:1
90. Noma'lum element tarkibida 35,3 % neytron (jami atom zarrachaga nisbatan) mayjud. Undagi proton va elektron yig'indisi neytronlar yig'indisidan 10 taga ortiq bo'lsa, noma'lum elementni aniqlang.
A) F B) Br C) Na D) Ne
91. Temperatura koefitsiyentlari 2 va 4 bo'lgan ikkita reaksiyaning boshlang'ich temperaturalari tegishli ravishda 30°C va 20°C ga teng. Qanday temperaturada ($^\circ\text{C}$) ikkinchi reaksiyaning tezligi birinchisiniidan 8 marta katta bo'ldi?
A) 60 B) 50 C) 40 D) 30
92. 400 g natriy sulfat eritmasiga tegishli miqdorda 20% li BaCl_2 qo'shilganda hosil bo'lgan eritmaning massasi dastlabki natriy sulfat eritmasidan 322,8 g ko'p bo'ldi. Natriy sulfat eritmasining konsentratsiyasi (%) aniqlang.
A) 71 B) 42,6 C) 28,4 D) 14,2
93. 1,25 mol modda 367,5 g suvda eritilganda uning 25% li eritmasi olindi. Erigan moddaning molar massasini (g/mol) aniqlang. (Reaksiya sodir bo'lmaydi)
A) 56 B) 40 C) 63 D) 98
94. 0,4 mol $\text{X}(\text{NO}_3)_3$ tuzi suvda eritilishidan olingan eritmada jami ion va molekulalar soni $1,3\text{N}_A$ dona bo'lsa va tuzning dissotsiylanishidan olingan X^{3+} kationining massasi 15,6 g ga teng bo'lsa, noma'lum metallni aniqlang. (tuzning gidrolizlanishini va suvning dissotsiylanishini hisobga olmang)
- A) Cr B) Mn C) Fe D) Al
95. Eritmadagi H^+ ionlari OH^- ionlaridan 10^6 marta ko'p bo'lsa, eritmadagi pH qiymatini toping.
A) 4 B) 10 C) 9 D) 3
96. Ortofosfat kislotali eritmasida quyidagi ionlarni ularning miqdorini ortib borish tartibida joylashtiring.
1) H_3O^+ ; 2) PO_4^{2-} ; 3) HPO_4^{2-} ; 4) H_2PO_4^-
A) 2,3,4,1 B) 1,4,2,3 C) 3,2,1,4 D) 1,4,3,2
97. $\text{Ca}(\text{ClO})_2 + \text{HCl} \rightleftharpoons \text{CaCl}_2 + \text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O}$ reaksiya bo'yicha oksidlovchi 8N_A ta elektron olgan bo'lsa, ajralgan gaz hajmini (l, n.sh.) toping.
A) 22,4 B) 56 C) 89,6 D) 67,2
98. 200 ml 1M li AgNO_3 eritmasi inert elektrodlar yordamida elektroliz qilinganda katodda 23 g modda ajraldi. Eritmadan necha faradey tok o'tganini aniqlang.
A) 0,4 B) 1,6 C) 1,4 D) 0,8
99. 25/35 g azot oksidi tarkibida 2/6 g azot bor. Shu oksidning formulasini aniqlang.
A) NO_2
B) N_2O_3
C) N_2O_5
D) NO
100. Kalii permanganat va natriy nitratdan iborat 0,8 mol aralashma (mol nisbati 1:0,6) qizdirilganda olingan gaz mis naychadan o'tkazildi. Olingan nay 320 g 98% li sulfat kislota eritmasi sarflansa, nayning necha foizi oksidlangan?
A) 60 B) 50 C) 40 D) 80
101. 0,5 mol litiy va kadmiydan iborat aralashma tarkibidagi litiyning mol ulushi kadmiyning massa ulushiga teng bo'lsa, ushbu aralashmaning massasini (g) hisoblang.
A) 14 B) 8,05 C) 24,15 D) 28
102. MeSO_4 ning 160 g 10%li to'yigan eritmasiga shu tuzdan 6,9 g qo'shildi va qizdirildi. So'ngra eritma boshlang'ich haroratga qadarsovutildi. Natijada 13,9 g $\text{MeSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$ cho'kmaga tushdi. Qolgan eritmadagi tuzning miqdorini (mol) hisoblang.
A) 0,3 B) 0,1 C) 0,2 D) 0,4
103. $x\text{CaCO}_3 = y\text{CaCO}_3 + z\text{CaO} + z\text{CO}_2$ ifodada x, y, z, z koefitsiyentlarning eng kichik butun qiymatdagi nisbatlari 5:1:4:
bo'lsa, reaksiyaning mahsulot unumini (%) aniqlang.
A) 60 B) 80 C) 75 D) 50
104. Azot, azot(II) oksid va azot(IV)oksiddan iborat 88 ml gazlar aralashmasi suvdan o'tkazilganda 50 ml gaz yutilmay qoldi. Yutilmay qolgan gazlar aralashmasiga 16 ml kislorod qo'shilganda aralashmaning hajmi 55 ml ga teng bo'ldi. Hosil bo'lgan aralashmadagi NO_2 ning hajmiy ulushini (%) aniqlang.
A) 50 B) 75 C) 25 D) 40
105. Rux metalli ikki xil konsentratsiyali nitrat kislotalarda eritilganda ajralgan NO va N_2O larning hajmlari nisbatni 4:1 bo'lsa, reaksiyaga kirishgan Zn larning mol nisbatni aniqlang.
A) 3:8 B) 3:4 C) 3:2 D) 1:1
106. Quyidagi anion bo'yicha gidrolizga uchraydigan tuzlarni ajrating.
1) $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$; 2) K_2CO_3 ; 3) $\text{CH}_3\text{COONH}_4$; 4) NaNO_2 ; 5) $\text{Cu}(\text{NO}_3)_2$; 6) $(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Ca}$
A) 2,4,6 B) 1,4,5 C) 1,3,4 D) 2,6
107. Alkan molekulyar massasi uning tarkibidagi uglerod atomlari massasidan (m.a.b) 8 m.a.b ga ortiq bo'lsa, alkanni aniqlang.
A) etan B) butan C) pentan D) propan
108. Etan va butan aralashmasi yondirilganda hosil bo'lgan karbonat angidrid miqdori suvning miqdoridan 0,6 molga kam, sarfangan kislorod miqdori esa hosil bo'lgan karbonat angidrid miqdoridan 1,3 molga ko'p bo'lsa, boshlang'ich aralashmadagi butanning miqdorini (mol) aniqlang.
A) 0,4 B) 0,3 C) 0,5 D) 0,2